



MISR YAMGI DAVR ADABIYOTI SHAKLLANISH DAVRI

Jonqobilova Zebiniso Kamoliddin Qizi

Magistrant

Samarqand davlat chet tillari instituti

E-pochta: jonqobilovazibiniso732@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7885117>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-april 2023 yil

Ma'qullandi: 28-april 2023 yil

Nashr qilindi: 30-april 2023 yil

KEY WORDS

adabiy turg'unlik, fransuz mustamlakachiligi, an-nahda harakati, tarjimonlik, madaniy uyg'unlashuv.

ABSTRACT

Ushbu maqolada XIX asr birinchi choragida Misrda yangi davr adabiyotining shakllanish davri, uning rivojlanish bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlarini va o'sha davr ijod vakillari faoliyatida yuz berga o'zgarishlar talqin etiladi. Talqin etish jarayonida adabiy sohadagi yangilanishlarga sabab bo'lgan omillar, xususan Fransuzlar mumtamlakachiligining madaniy-ma'rifiy yo'alishlarga o'tkazgan ijobiy va salbiy oqibatlari xususida ma'lumotlar keltirilgan. Umumiy olganda, Misr davlatida Yevropa mustamlakachiligi ta'sirida vujudga kelgan yangi adabiy davrning kelib chiqishi haqida so'z boradi.

Misr adabiyoti qadimdan jahon adabiyotining, xususan arab adabiyotining ajralmas qismini tashkil qilib kelgan. Uning tarixi ikki ming yil oldingi o'tmishga borib taqaladi. Adabiyot hozirgi ko'rinishga kelguniga qadar turli boshqaruvlar ta'siri natijasida, uzoq yillar zalvori ketidan necha nechalab bosqichlar va o'zgarishlarni boshdan kechirdi. XIX asr Misr adabiyoti uchun ulkan o'zgarishlar davri bo'ldi. O'sha davrdan boshlab Misrda adabiy maktablar paydo bo'lib, yuksalish sari harakatlar boshlandi.

Misr adabiyotiga yangi davrning kirib kelishi uchun davlat siyosati, mustabid tuzimlari, umumiy qilib oladigan bo'lsak, jamiyadagi yuz berayotgan barcha o'zgarishlar katta ta'sir o'tkazgan. "Yangilanish" (An-Nahda) harakati ham aynan mustabid tuzumi ta'siridan qochib ozodlik sari intilishga bo'lgan shijoatning yuqoriligi natijasida yuzga kelgan edi. Tarixdan ma'lumki, butun arab diyorida XIX asrning boshlariga qadar Usmonli turklar rahnamoligi ostida keng qamrovli turg'unlik holati saqlanb kelayotgan edi. O'sha turg'unlikning yaqqol namunasini arab adabiyotining na oldinga va na ortga siljish bo'lmagan holatida ko'rish mumkin. Adabiyotda butkul o'zgarish va yangilanish alomatlarini sezilmas aksincha, adabiyot vakillari tarixda qoldirilgan adabiyot va adabiy me'rosni takrorlash bilan chegaralanib qolgan edi. Usmonli turklar davrida bunday turg'unlikning sababini mustamlaka davlatning sultonlik poytaxtiga yaqin yoki uzoqligi bilan o'lchashgan. Usmonlilar davrida mamlakat boshqaruv tizimining tanazzulga yuz tutib borishi natijasida adabiyot sohasida ham rasmiyatchilik va verbalizm qat'iy hukm surgan. Usmonlilar davridagi ijtimoiy hayotga nazar tashlasak tarixiy adabiyotlarda "Turk hukumati Misrda hukmronlik qilgan uch asr davomida o'z ishlarini ko'z yumish, aqllarni kishanlash va tilni ushlab turish bilan bajardi. Turklar

o'lkada o'ziga xos ishg'olni joriy qildilarki, bu aslida mamlakatni moddiy va ma'naviy jihatdan o'ldirish bilan tengdir. Ularning kasbi xalqning mollarini talash, barcha boyluklarini musodara qilish, qobiliyatlarga to'sqinlik qilish va ziyolilarni qamoqqa tashlash bo'ldi. Ishg'olining boshida Misrdan ko'plab olim va san'atkorlarni, kitob va qimmatbaho buyumlarni olib ketishdi. So'ngra ular byurolarni tark etib rahbarlik va ma'muriy ishlarni o'z qo'liga topshirdilar. Usmonlilar tomonidan soliqlar joriy qilindi, islohotlar va ta'lim-tarbiya e'tibordan chetda qoldi. Hatto maktablar ham yopilib, buzib tashlandi. Natijada ilm fan alangasi so'ndi. Faqatgina al-Azhardan taralayotgan nur din va dindan qolgan narsalar uchun muqaddas joyga aylandi. Til ham boshqa sohalar singari turg'unlik davrini boshdan kechirayotga edi. Xuddi shunday vaziyatda adabiy harakat ham to'xtab, hatto toshdek qotib qoldi. Arab tilida ham og'ishlar bo'ldi, unda turkiy ko'paydi..."¹ deya xotirlanadi. Bunday adabiy turg'unlik faqatgina Misr bo'ylab emas balki butun arab adabiyoti olamida yuz berayotgan edi. Bu turg'unlik to fransiya protektorati o'rnatilgunga qadar davom etgan. Faqat XIX asrga kelibgina arablar va g'arb mamlakatlari o'rtasida kechgan madaniyatlar qorushuvi oqibatida bu turg'unlik sekin-asta parchalana boshladi. Ba'zi tarixiy adabiyotlarda yangi arab adabiyotining boshlanish davri XVIII asrning so'nggi yillari, Fransiyaning Misr ustidan hukmronlik o'rnatishi bilan boshlangan deya ta'riflana, boshqa manbalarda XIX asrning birinchi choragida deya talqin etiladi. Avvalo, yangi arab adabiyoti tushunchasiga to'xtalib o'tsak. Yangi arab adabiyoti asosan XIX asrdan boshlab "Uyg'onish" (An-nahda) harakati ketidan bir qator arab mamlakatlarida, xususan, Misr, Liviya, Suriya va Iroq kabi davlatlarda shakllangan adabiyotning yangicha tus olish davrini va arab davlatlari uchun nisbatan yangi soha bo'lgan publisistikaning rivojlanish davrini nazarda tutadi. Arab adabiyoti yangilanishining ilk kurtaklari Misrda namoyon bo'la boshladi.

Yangi davr adabiyotini ham uch bosqichga bo'lish mumkin:

- Yangi davr adabiyotining birinchi bosqichi Fransiyaning Misrga kirib kelishidan to 1914-yil "birinchi jahon urushi boshlangunga qadar davom etadi.
- Ikkinchi bosqich esa ikki urush orasidagi davr (Birinchi va Ikkinchi Jahon Urushi) ni qamrab oladi.
- So'nggi davr zamonaviy davr adabiyoti urush tugagandan to hozirga qadar davom etadi.

Umuman, yangi arab adabiyoti shakllanishining ilk bosqichi arab o'lkalari orasida birinchilardan bo'lib Misrda namoyon bo'la boshlagan. Bu hodisalarning boshlang'ich shakllarini 1798-yilda Fransiya qo'shinining Misrga bostirib kimgandan keyingi davrlarda kuzatishimiz mumkin. Fransiya hukumati o'z manfaatlari yo'lida mamlakatda o'z siyosati, balki mafkurasi va ma'naviyatini singdirishga urindi.. Xalq orasida bunday mafkuraviy tuzimdan qattiq norozilik kayfiyati shakllandi. Norozilik kayfiyati adabiyot vakillarini ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib etishga, yangi zamon sharoitida jamiyat muammolariga yaqindan yondoshishga undadi. Endi adabiyotda "millat", "xalq manfaati", "hokim va xalq", "parlament", "inson huquqlari", "vijdon ozodligi", "ayolning jamiyatdagi o'rni", "taraqqiyot" kabi yangi tushunchalar bot-bot takrorlanadigan bo'ldi. Napaleonning yurishidan oldingi davrlarda ham Misrda bir necha martalab turli davlatlar tomonidan mustabid tuzimlari o'rnatib tugatilgan bo'lsada, ijtimoiy hayotda ko'zga ko'rinarli yangilanish va ijobiy tomonga

¹ Ibn Iyosning "Badoi uz-zuhr" va Abdurrahman ar-Rifoiyning "Milliy harakat tarixi". 4. 342 bet. 1-jild

o'zgarishlar sezilarli darajada emas edi. Ammo fransuzlarning kelishi adabiy qatlam vakillarining norozilik hissiyotlarini to'liqlantira oldi. Matbuotda tez-tez ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy-axloqiy mavzular doirasida maqolalar nashr qilinib publisistika janrlari ancha yangi ko'rinishda shakllanib bordi. Fransuzlarning hokimiyati uzoqqa cho'zilmagan bo'lsada ijtimoiy hayotda katta asoratlar qoldirdi. Albatta, bu asoratlarning salbiy oqibatlari talaygina, lekin ozodlik uchun kurashning boshlanishi ijobiy tomonga o'zgarish uchun debocha vazifasini o'tadi. 1801-yilda Fransuz armiyasi ustidan Buyuk Britaniya qo'shini g'olib bo'lishi Misrni yana mustamlakalik zulmati ostiga tushirdi. Ammo bu tuzim ham uzoqqa cho'zilmadi. 1805-yilning may oyidan boshlab Muhammad Ali Posho Misr boshqaruvini o'z zimmasiga oladi. Shu sababdan Muhammad Ali Posho yangi Misrning asoschisi sifatida tilga olinadi. U o'z hukmronlik davrida davlatning qishloq xo'jaligidan tortib, sanoat, savdo va hatto adabiyot sohasigacha modernizatsiya qilish ustida ish olib bordi. Uning boshqaruv siyosati nisbatan qattiqqo'llikka asoslangan bo'lsada, amalga oshirgan islohotlarining natijasi evaziga badal bo'lib xizmat qildi. Muhammad Ali sulolasi usmonlilar imperiyasiga qarshi harbiy qo'shin to'plab, yirik armiya tuzgandan keyin Usmonlilar hukmronligidan deyarli mustaqil bo'lib qoladi. 1915-yilda mamlakat yana Britaniya protektoratiga aylanadi va nihoyat 1922-yilda to'liq mustaqillikka erishadi. Ko'rinish turganidek, Misr ancha davr oralig'ida siyosiy beqarorlik vaziyati, turli xil adolatsizlik va notog'ri boshqaruvlar zulmidan aziyat chekdi. Bunday siyosiy tanglik sababidan dunyoning shiddat bilan ilgari ketayotgan davlatlaridan ortda qolib ketdi. O'sha davrda fransuzlar va inglizlar jamoasining ko'pchilik qismi Misrga kelib ular bilan bir diyorda istiqomat qilishgan, ammo misrliklar ularning o'z diyorlarida yashashlaridan biron bir naf ko'rmas, balki ularga nisbatan nafrat hissini his qilish bilan kifoyalanishgan. Ular o'z mamlakatlari salib yurishlaridan keyin o'zlariga yetkazilganidek zaif degan fikrga ishonar, Yevropani esa jang sohasida, bilim va taraqqiyotda juda ilgari ketgan degan tushunchada edilar. Haqiqatda Misr ortda qolganligi rost, ilgari ketish uchun esa imkon berilmagan bo'lg'i muhit ichra chorasiz ahvolda edi. Misrning G'arb bilan bo'lgan bunday aloqasi fransuz iste'losi bilan boshlangan. Bu nafaqat ikki davlat o'rtasidagi harbiy yurish edi balki ikki xil madaniyat o'rtasidagi tortishuv ham edi. Napoleon qo'shini bilan birgalikda bir qator olimlar va yozuvchilarni ham Misr diyoriga keltirishi uning ilmiy maqsadlarni ham ko'zlaganidan dalolat berardi. "Zamonaviy Misr xotirasi" nomli jurnal fransuzlar bosqinining salbiy va ijobiy oqibatlari haqida so'z ketib "Arab harflari bilan jihozlangan birinchi bosmaxona Fransiyaning Misrga qarshi yurishi paytida Napoleon Banapart tomonidan tashkil etilgan. Uning maqsadi Misrliklarning fransuz qo'shiniga nisbatan xayrixohligini qozonish va xalqqa ma'lumotlar tarqatish uchun nashrlarni chop etish edi"². Bu bosmaxonada ilk bor "Arab bayonoti" chop etilgan. 1798-yilda Napoleon bosmaxonaning Iskandariyadagi arab bo'limini qoldirib, fransuz bo'limi bilan Qohiraga jo'nab ketadi.

Fransuz bosqinidan so'ng 1821-yilda Muhammad Ali o'sha bosmaxonani o'zi asos solgan "Buloq" nomi bilan mashhur bo'lgan matbuot markaziga aylantiradi. Aynan mana shu bosmaxonaning tashkil etilishi Misrda adabiyotining yangi davrga o'tishi uchun qo'yilgan ilk qadam edi. Dastlab matbuotda darsliklar, tarjima kitoblar va mualliflik ishlari chop etilgan bo'lsa, 1828-yildan boshlab "Misr voqealari" (Vaqoiul-Misriyya) nomli birinchi Misr ro'znomasi ham joy oldi. Muhammad Ali hukmronlik (1805-1848) davrida Misr va G'arbiy Yevropa davlatlari o'rtasidagi madaniy aloqalar ancha barqarorlashib bordi. Madaniy aloqalar

² "Memory of contemporary Egypt" issued by bibliotheca Alexandrina press . the last pressed

almashish maqsadida 1826-yilda Misrlik Azhari sharif talabalari orasidan 44 kishilik guruh tuzilib Fransiyaga o'qish uchun missiyalar yuborildi. Bu missiyaning qaytib kelishi natijasida tarjimonlik harakatlari tashkil qilindi. 44 kishilik jamoa orasida Fransiyada olti yillik umrini g'arb madaniyati va ta'limini o'rganishga bag'ishlagan, fransuz tilini puxta o'zlashtirib qaytgan Rifo at-Taxtaviy ham bor edi. Parijdan puxta ilm egallab qaytgan Taxtaviy ilk tarjimonlik maktabiga asos solib, unga "Daar ul-alsun" (Tillar hovlisi 1835-yil) nomini berdi. Undan so'ng Qohiradgi mashhur "Ayn ush-shams" universitetining "Kulliyot ul-alsun" (Tillar fakulteti) ga asos soladi. Tarjimonlar uyida qizg'in adabiy ishlar yo'lga qo'yilib, asosan Yevropa mumtoz adabiyoti namunolari, ta'lim tizimidagi darsliklar, o'quv qo'llanmalari, texnikaga oid adabiyotlar va ilm fanga oid kitoblar tarjima qilinib nashr etila boshlandi. Kitoblarning barchasi "Buloq" nashriyotida nashrdan chiqarilardi. Bundan tashqari, missiyaning qolgan a'zolari ham o'z vakolatlari doirasida tarjima va maorif sohalarida faoliyat yuritdilar. Keyinchalik ham bunday missiyalar qatnovi to'xtab qolmadi, aksincha, ular bir nechta boshqa, Amerika va Yevropa mamlakatlarini ham qamrab oldi.

Usmonlilar davrida yurtdan qochib Misrga kelib qo'nim topgan livanlik, suriyalik va boshqa xalq vakillari ham yuksalish davrining ishtirokchilariga aylandilar. Nashriyotga qiziqqan livanlik va suriyalik qalam sohiblarining kelishi Misrda yangi adabiy oqimning paydo bo'lishi uchun zamin yaratdi. Al-Alsun maktabida turli xil xorijiy tillarni o'rgatish ham yo'lga qo'yilib, uning bitiruvchilari ham yuzlab kitoblar, hikoyalar, pyesalarni tarjima qilishda jonbozlik ko'rsatishgan. Fransuz va ingliz kitoblarining arab tiliga o'girilishi uyg'onish davri adabiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Al-Buloq matbuoti ochilgandan roppa-rosa qirq yil o'tgach, xususiy bosmaxonalar ochila boshladi. Matbuotga doir ishlar ancha ko'payib borgach matbaa mashinalari soni ham ko'payib bordi. Bu orada madaniy merosni qayta tiklash harakatlari ham adabiyot sahniga chiqdi. G'arb davlatlari bilan yaqin aloqa qilish, uning madaniyatidan bahramand bo'lish va unga taqlid qilish sharqshunoslik olamidagi adabiy merosni qayta tiklash zaruratini keltirib chiqardi. Adabiyotni yangidan boshlash uchun ijod ahli oldida adabiy til bilan bog'liq katta muammo ham ko'ndalang turardi. Yuqorida keltirib o'tilganidek, turklar hukmronligi davrida rasmiy til turk tili sifatida yuritilganligi sababli arab tiliga ko'plab turkiy so'zlar o'zlashib ketdi. Endi sof adabiy tilni qayta tiklash yo'lidagi harakatlarga ham e'tibor qaratila boshladi. Taniqli filolog olim Ibrohim Dasuqiy adabiy tilni soddalashtirib, xalq hayotiga tatbiq etish yo'lida da'vatlar qildi. O'sha davrning ko'zga ko'ringan ma'rifatparvarlaridan Xasan Attor, Abdurrahmon al-Jabartiy va Muhammad Aminlar Misrda feodal tuzimning kapitalistik tuzimga o'tishini jadallatishda ulkan hissa qo'shgan. Ma'rifatparvarlar yurti jaholat botqog'idan ma'rifat yorug'ligiga chiqarishning yagona yo'li deb xalq aql-idrokini oshirish, ma'naviy ongni yuksaltirish deb bilar edilar. Shuning uchun ham ular qadimiy arab qo'lyozmalarini nashr qilish uyushmasini tashkil qidi. Bu ishni Ali Muborak tashkillashtirib at-Taxtaviyni boshchilik qilish uchun tayinlashdi. Adabiy hayotda o'sish sur'ati ortib, ijod sahnida ish qizg'in tusga kird. O'sha davrning ko'zga ko'ringan adiblaridan bo'lmish Abdurrahmon al-Jabartiy "Misr Muhhammad Ali hukmronligi ostida" nomli tarixiy asar yaratdi. Bu asarda arab dunyosidagi ijtimoiy, siyosiy ahvol, jamiyatda bo'layotgan turli o'zgarishlar, xalq hayoti kabi mavzular batafsil yoritib berilgan. Asarda aniq faktlar va haqiqiy dalillarga asoslangan ma'lumotlar yorqin aks ettirilgan bo'lib, o'sha davrdagi tarixni o'rganishda nihoyatda qimmatli manba hisoblanadi. siyosiy qatlam a'zolari bilan aloqador oilada tavallud topgan. "Otasi, Hasan al-Jabartiy Qohiradagi ziyoli va yuksak

hurmatga sazovor odam edi. Jabartiyning otasi hanafiy diniy olimi bo'lib al-Azhar universiteti talabalari uchun, al-Jabartiy qarorgohi direktori bo'lib ishlagan" ³. Otasining vafotidan so'ng bu lavozim Aal-Jabartiy ga meros bo'lib o'tdi. Keyinchalik al-Azhar universitetida shayxlik unvonini ham olgan. Oiladagi ilmiy muhit va otasining olimlar bilan bo'lgan yaqindan munosabati ortidan al-Jabartiy ham yozuvchilik sohasiga qiziqish bilan ulg'aydi. Unin taniqli olimlardan bo'lgan al-Murtado va al-Murodiylar bilan bo'lgan aloqlari natijasida Misr tarixi haqida asar yozish fikri tug'iladi. Shundan so'ng u har oylik mahalliy voqealar xronologiyasini tuza boshladi va o'zining eng yirik uch asarini tuzishga muvaffaq bo'ldi. Bu asarlar o'zida aniq sanalar, biografiyalar va voqealarning ajoyib badiiy tarzda ifodalanishi bilan katta e'tiborga sazovor bo'lib, dunyoga mashhur tarixiy matnga aylandi. Bu xronologik tarixiy asarda fransuz ekspeditsiyasi va ishg'oli haqida batafsil bayon etilgan bo'lib, undagi ko'plab tarixiy ma'lumotlar ingliz tilida alohida jildlar sifatida to'plangan. Abdurrahmon al-Jabartiyning ijodiga jamiyat hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ta'siri juda katta edi. G'arb olimlaridan Xristopher de Bellige "Islom ma'rifati. Iymon va aql o'rtasidagi kurash" nomli asarida -"U fransuz iste'losi bilan birga zamonaviy to'lqinning kirib kelish ahamiyatini anglagan birinchi musulmonlardan bo'lib, G'arb va Islom bilimlari o'rtasidagi tafovutdan qattiq hayratda qoldi" ⁴ deyiladi.

Haqiqatda Jabartiy fransuz bosqinchilarining zamonaviy ilmiy tajribalari, ilg'or texnologiyalari, moddiy va madaniy qadriyatlariga guvoh bo'lib "Tarixu muddatil faransis bi Misro" (Misrda fransuzlar iste'losi tarixi) nomli asarida - o'sha davr tajribalarini e'tirof etib" ...va Hasan Koshif Jarkasning uyidan ilmiy sanoat va kimyoviy tibbiyot uchun joy ajrtildi. U yerda ko'rganlarim juda gayrioddiy ishlar bo'lib, tadqiqotchilardan biri biroz suv solingan shishalardan birini olib suvning bir qismini kosaga quyib, qolganini boshqa bir shishaga soldi. Suv shishani to'ldirdi va undan rangli tutun ko'tarili, idishdagi narsa qurib, sariq toshga aylandi. O'sha toshlardan minoralar qurishdi. Biz uni qo'llarimiz bilan ushlab ko'rdik. Ular boshqa suvlar bilan ham xuddi shunday qiishdi... Bizdek aql egalari erisha olmagan g'ayrioddiy narsalar..." ⁵ deya xotirlaydi. Garchi u Yevropaliklarning ma'lum sohalarda erishgan yutuqlarini tan olgan bo'lsada, Islomning Yevropa ratsionalizmidan ustunligini ta'kidlagan, Islomning G'arb ustidan g'alaba qozonishiga qat'iy ishongan va bosqinchilarga nisbatan qattiq nafratini aks ettirgan. Ulardan 1798-yilda tugallangan "Mazhar al-taqdis bi-zavali davlati faransis" (Fransuz jamiyatining halokatida taqvoning namoyishi", 1801-yilda tugallangan "Ajoib al-athar fit-tarajim val-axbor" (Tarjimai-hol va voqealarning ajoyib kompozitsiyalari) asarlari Jabartiyning eng mashhur asarlaridir. Yozuvchi bu ishlari orqali nafaqat ijtimoiy voqelikni tasvirlagan balki, Misrda arab tili grammatikasini keng ko'lamli tuzatishga ham bel bog'lagandi. Ayni shu davrda adabiyotning boshqa namoyandalari tomonidan ham insonparvarlik, millat manfaati, aql idrokka tayanib tafakkur qilish va ratsional g'oyalar paydo bo'la boshladi. Bir tarafdin ilg'or taraqqiy etayotgan yot mamlakat tajribalaridan keng foydalanish, keying tarafdin esa o'z milliy madaniyatlarga sodiq qolgan holda an'anaviy qadriyatlarni tiklash va asrab qolish masalalari keng tus ola boshladi. "Yangi adabiy jarayonning shakllanishida XVI-XVIII asrlar fransuz ma'rifatparvarlik harakati

³ Huart Clemnt "Arab adabiyoti". 1903-y. Nyu-York Appleton. 423-bet

⁴ Christopher de Bellaige "The Islamic enlightenment. The struggle between faith and reason" 1798 to Modern Time. New York, Liveright, 2017. 6 and 33 pages.

⁵ Abdurrahmon Al-Jabartiy "The history of the period of the French occupation in Egypt" 1798-y

g'oyalari katta ta'sir ko'rsatdi" ⁶. Shu bilan bir qatorda, ma'rifatparvarlik harakatlarining islom dini qadriyatlariga tayanib, uni yana qaytadan tadbiiq etish tamoyillari ham ilgari surildi. Musulmon islohotchilari din va ilmni birdek mahkam tutib bosqinchilarga qarshi turishga, Qur'on oyatlarida butun dunyoda qo'lga kiritilayotgan ilm-fan ixtirolari haqida bashoratlar borligi va Islom dinining taraqqiyotga qarshi emasligini uqtirar edilar. Siyosiy masalalarda publisistikaning ham alohida o'rni bor. Misr diyorida faoliyat yuritgan mashhur publisistalardan Jamoliddin al-Afg'oniy va uning qarashlarini davom ettirgan uning shogirdlari, Nuhammad Abduh, Mustafo Komil kabi otashin notiq va so'z ustalari arablararga xos nutqiy san'atni ijtimoiy -siyosiy muammolari bilan bog'liq holda rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shdilar. Ular tomonidan yaratilgan ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy-axloqiy masalalar to'g'risidagi barcha turdagi maqolalar publisistik janrlarning shakllanishi uchun zamin bo'ldi. Jamoliddin al-Afg'oniy (1838-1897) asli Afg'onistonning Astrabod shahrida tug'ilgan bo'lib, Hindistonda ta'lim oladi va zamonasining ko'zga ko'ringan ma'rifatchilaridan va diniy islohotchilardan biri bo'lib yetishadi. XIX asrda musulmon dunyosi bo'ylab sayohat qilgan faol siyosatshunos, Islom modernizmi asoschilaridan biri va Islom mafkurachisi sifatida tilga olinadi. U haqida "Britaniya vakillari uning O'rta Osiyoda no'g'ay turklarining liboslarini kiyib yurishini, fors, arab hamda turk tillarini yxshi bilganini ma'lum qilgan" ⁷. O'z g'oyalari va taliflari sababli bir nechta davlatlar, xususan Afg'oniston va Turkiyada qolish uchun siyosiy qatlam qarshiligi va noroziliklariga duch kelib, Misrga kelib o'rnashadi. Bu yerda Misr hokimi Hediv Ismoil tomonidan yaxshi qabul qilingach al-Azharda mudarris sifatida ish boshlaydi. Al-Afg'oniyning mafkurasi musulmon bo'lmaganlarga nisbatan g'arb imperializmini va an'anavi diniy antipatiyalar tanqidiga va Islom birligiga da'vat qilish, Islomni rad etmaydigan g'arb fanlari va institutlarini qabul qilishga chaqirish sifatida tasvirlagan" ⁸. Jamoliddin al-Afg'oniy Misrda yangi usul maktablari ochish bilan bo'lgan tarixiy voqeada ahamiyatlidir. U bu maktablarda shogirdlarini har bir fuqaroning jamiyat oldidagi burchi va majburiyati borligini anglashga, mustabid hukmiga qarshi konstitutsiya hukmronligi o'rnatish lozimligi haqidagi masalalarni singdirishga harakat qiladi. Al-Afg'oniy yakka hokimlik tuzimiga barham berib, parlamentar boshqaruv tizimini o'rnatish tarafdori bo'lgan. Bu g'oyalarini xalq orasidan chiqqan ziyolilar, nufuzli diniy arboblari, ishchi xodimlardan tortib to'pdiy ishchilar orasida ham targ'ib qiladi. Uning bunday mafkuraviy g'oyalari butun sharq musulmonlari orasida yoyilib, XIX asr boshlaridagi ijtimoiy harakatlar uchun ma'naviy oзуqa bo'lib xizmat qiladi. U adabiyot xalq ongini yuksaltirish uchun yagona kuch deb ishonardi. Shu sababdan ham adabiyot ijodkorlarni xalq tushinishi uchun ularning ongiga mos ravishda asarlar yozishga chorladi. Uning bu qarashlarini keyinchalik Saad Zag'lul, Mustafo Komil, Muhammad Muvaylihiy kabi marifatparvarlar qo'llab-quvvatladilar. Uning g'oyalarini targ'ib etishda ayniqsa, Muhammad Abduhning roli juda katta bo'ldi. U Misrda ro'y bergan diniy islohotchilik harakatining boshida turib, dastlabki faoliyatini Azhari sharif universitetida boshlagan. O'sha davrda ming yillardan buyon o'z nufuzi yo'qotmay kelayotgan bu universitet ichki faoliyati eski qoliplar doirasida qotib qolgan, dunyoviy fan rivojlanishlaridan ortda qolgan edi. Muhammad Abduh universitet ma'muriyatidan birinchi navbatda o'qitish jarayonlarida ma'lum tarbiy-qoidalar o'rnatishni, diniy bilimlar qatorida dunyoviy fanlarni ham joriy etishni va ilmiy kengash tuzish

⁶ "Arab adabiyoti" Toshkent 2016. 296 b

⁷ Modefi K.Asante, "Misr madaniyati va urf-odatlar". Greenwood publishing group.2002. 137-b.

⁸ Kramer Martin S. "Arab uyg'onish davri va Islom uyg'onish davri. Yaqin sharqdagi g'oyalar siyosati" 1996.

masalalarigae'tibor qaratishni talab qildi. U hayotining keying yillarida milliy mustaqillikka erishish yo'lini kurashda emas balki ozodlikka erishishning asosiy yo'li islohotchilik va ma'rifat tarqatish ekan degan xulosa keldi. Muhammad Abduh va Jamoliddin al-Afg'oni 1884-yilda "Al-Urvat ul-vusqo" nomli panislomiya yo'nalishidagi siyosiy, inqilobiy adabiy jurnalga asos solishdi. Bu jurnal an-nahdaning eng muhim nashrlaridan bo'lib Misr bo'ylab keng tarqaldi. Muhammad Abduh modernizm yo'nalishining yirik namoyandasi o'laroq "Risalat ut-tavhid" va "Sharhi nahj al-balog'a" asarlarining muallifi hisoblanadi. "Siyosiy qarashlar borasida Muhammad Abduh uchun Afg'oniyaning ta'siri katta bo'lishiga qaramasdan, oxir oqibatda u tanlagan yo'ldan chetlashadi va afg'on panislomist ziyolilarning siyosiy g'oyalarini tanqid qiladi. Ular o'rtasida qattiq tortishuvlardan so'ng Muhammad Abduh buning o'rniga ta'lim sohasini bosqichma bosqich isloh qilishga jon-jahdi bilan kirishadi"⁹.

XULOSA. Shunday qilib Misr XIX asrda boshqa arab davlatlariga qaraganda madaniy va siyosiy jihatdan nisbatan rivojlangan markazga aylanib ulgurdi. Misr yangi davr adabiyotining boshlanish davrida yuz bergan madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar katta hududni qamrab olgan boshqa Arab davlatlari adabiyotining kelgusi taqdiri uchun dasturul amal vazifasini bajardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibn Iyosning "Badoi uz-zuhr" va Abdurrahman ar-Rifoyning "Milliy harakat tarixi". 4. 342 bet. 1-jild
2. "Zamonaviy Misr xotirasi" Alexandrina press kutubxonasi nashriyoti tomonidan chiqarilgan.
3. Huart Clemnt "Arab adabiyoti". 1903-y. Nyu-York Appleton. 423-bet
4. Christopher de Bellaige "The Islamic enlightenment. The struggle between faith and reason" 1798 to Modern Time. New York, Liveright, 2017. 6 and 33 pages.
5. Abdurrahmon Al-Jabartiy "The history of the period of the French occupation in Eygpt" 1798-y
6. Arab adabiyoti" Toshkent 2016. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti monografik tadqiqot. 296 b
7. Modafi K.Asante, "Misr madaniyati va urf-odatlari". Greenwood publishing group. 2002. 137-b.
8. Kramer Martin S. "Arab uyg'onish davri va Islom uyg'onish davri. Yaqin sharqdagi g'oyalar siyosati" 1996
9. Motadel, David "Islam and Yevropean Epires" Greet Clarendon Street, Oxford, United Kingdom; Oxford University Press. 2014. pp35, 184, 187.
10. Noor-book.com...

⁹ Motadel, David "Islam and Yevropean Epires" Greet Clarendon Street, Oxford, United Kingdom; Oxford University Press. 2014. pp35, 184, 187.